

## TARBIYA JARAYONIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

**X. Abdukarimov***Guliston davlat universiteti p.f.n., professor**E-mail: [nurumbkova@inbox.uz](mailto:nurumbkova@inbox.uz).*

**Annotatsiya:** *Maqolada jamiyat qachonki komillikka intilib yashaydigan insonlardangina tarkib topsa, har xil illatlarga o‘rin qolmasligi haqida fikr yuritilgan. Tarbiya ishi texnologik nuqtai nazardan ko‘ngil ko‘zi bilan qarashni taqozo etishi yoritilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *tarbiya, tarbiya texnologiyasi, fazilat, insonparvarlik, vatanparvarlik*

**Аннотация:** *В статье обсуждается идея о том, что когда общество состоит только из людей, стремящихся к совершенству, в нем не останется места для различных пороков. Подчеркивается тот факт, что работа в сфере образования требует технологического подхода.*

**Ключевые слова:** *образование, образовательные технологии, добродетель, гуманизм, патриотизм*

**Abstract:** *The article discusses the idea that when a society consists only of people striving for perfection, there will be no room for various vices. It highlights the fact that the work of education requires a technological approach.*

**Keywords:** *education, educational technology, virtue, humanity, patriotism*

Tarbiya texnologiyasi davr ehtiyoji sifatida milliy va umuminsoniy tarbiya takomili hamda mamlakat ravnaqiga xizmat qilishi lozim. Ammo bu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqot ishlarining nazariy saviyasi pedagogika fani amaliyoti talablaridan ortda qolayotganligi sezilib kelmoqda. Ma’lumki, barcha chaqaloqlar deyarli bir xil yig‘lashadi va bir xil kulishadi. Hatto chehralarida ham o‘xshash alomatlar mavjud. Ammo katta bo‘lgani sari bir-birlariga o‘xshamay borishadi, qiziqishlari va bilishlarida ham farq seziladi. Ehtiyoj turlari vujudga keladigan tarbiyaning alomati o‘laroq bu jarayonda egizaklar faoliyatida ham farqli tomonlar ko‘rina boshlaydi. Tadqiqotda kuatish, suhbat, ilmiy metodik tahlil, qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

Tarbiya texnologiyasi pedagogik-psixologik jarayonning nozik, ingicha va ayni paytda murakkab qirralarini qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, dori-darmon inson jismiga qanday ta’sir etsa, so‘z sehri, fikr ham inson ruhiyati va tarbiyasiga shunday ta’sir ko‘rsatadi. Tanadagi og‘riq, jarohatga ba’zi dorilar malham bo‘lsa, ba’zilari organizmni zaharlab izidan chiqaradi. Shunday so‘zlar borki, insonni qayg‘u-alamga botiradi, boshqalari esa kuchiga-kuch, g‘ayratiga-g‘ayrat qo‘shadi, mardonavorlikni



jo'sh urdiradi, ertangi kuniga ishonch tuyg'usini shakllantiradi, yomon yo'llardan qaytarib, to'g'ri yo'lga boshqaradi.

Insonda yangicha muloqot odobini shakllantiradi.

Tarbiya texnologiyasining mantiqiy mohiyatiga oid ilmiy-amaliy xulosalarni qisman bayon etgan holda, uning mazmun-mohiyati keyingi sahifalardan boshlab ochib boriladi, ya'ni:

- 1) bilishning asosiy omillari;
- 2) tarbiya texnologiyasida imkoniyat va zaruratning motivatsiya vazifasini o'tashi;
- 3) tarbiya texnologiyasida sabab va oqibatni hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi;
- 4) ongli idrok;
- 5) tuyg'ular vositasida va tafakkur orqali bilishning uyg'unlashuvi;
- 6) adolatni tan olish va Ollohni anglash;
- 7) e'tiqodli bo'lish va komillik sari intilib yashash.

Milliy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tarbiya deganda shaxsni muayyan maqsad sari yo'naltirish jarayoniga aytiladi desak o'rinli bo'ladi.

Tarbiya jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan "tarbiyachi-tarbiya oluvchi-otana" faoliyatini, shu bilan birga keng qamrovli mahalla, jamoatchilik hamda boshqa tashkilotlarni ham o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida tarbiya oluvchining aqliy qobiliyati, xulq-atvori, his-tuyg'ulari, xarakter xususiyatlari shakllanadi, jismoniy kuch-quvvati rivojlanadi, estetik xislatlari hamda mehnatga bo'lgan munosabati tarkib topadi, tabiatga va jamiyatga bo'lgan ilmiy qarashlar tizimi muntazam ravishda o'zgarib boradi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiya tarbiyachi, o'qituvchi va murabbiylar tomonidan rejali hamda maqsadli ravishda amalga oshiriladi. Tarbiya yosh, jins va individual xususiyatlar hisobga olingan holda tashkil etiladi. Shu bilan birgalikda tarbiyada mavsum yoki ta'til bo'lmasligi o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. Tarbiyaning quyidagi, - ya'ni: uning ko'p qirrali jarayon ekanligi, uzoq muddatli va davomiyligi, yaxlit holda va konsentrik amalga oshishi, ikki va undan ortiq tomonlama xususiyati, qarama-qarshiliklarning ko'pligi hamda baland ijtimoiy faolligini ta'min etish kabi xususiyatlar ham alohida nazarda tutiladi.

Ijtimoiy hayot paydo bo'lgandan buyon tarbiya jamiyat taraqqiyotining yetakchi va hal qiluvchi omili sifatida rivojlanib kelmoqda. Shunga ko'ra tarbiya azaliy va abadiy mavzu hisoblanadi. Xo'sh shunday ekan, unda tarbiya texnologiyasi haqida nima uchun fikr yuritish lozim bo'ldi? degan savol topish o'zining ilmiy javoblarini topish lozim.

Tarbiya texnologiyasida sodda, ammo sehrli so'zlar muhim rol o'ynaydi. Milliy g'oya mazmunidan kelib chiqib, tarbiya texnologiyasi o'quvchiga to'g'ri yo'nalish berishga qodir bo'lmog'i lozim. Shaxs kelajagini belgilashda komillik yo'li – bu ilm yo'lidir. Nodonlik, bilimsizlik, ma'rifatsizlik va johillik hamma davrlarda ham qoralangan.





Komillik sari intilish – bu shunchaki orzu emas, balki shaxsning ezgulikka xizmat qilishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy maqsadlarini aniqligi, uyg‘unligi bo‘lib, yuksak ma‘naviyat timsolidir.

Erkin fuqarolik jamiyatni yuksak ma‘naviyatli, ezgu g‘oyali, e‘tiqodli butun insonlargina bunyod etadi. Shunga muvofiq tarbiya texnologiyasi:

- milliy tarbiyaning mazmun-mohiyatiga yanada aniqlik kiritgan holda o‘quvchini mayda muammolar tevaragida o‘ralashib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi;

- shaxs “Men”ini barqarorlashtirishga xizmat qiladi;

- tarbiya texnologiyasini amalga oshirishda tegishli shart-sharoit yaratgani kabi, o‘z navbatida sharoit ham shaxs xulq-atvoriga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rniga alohida e‘tibor qaratiladi;

- o‘quvchiga ijodkor shaxs, yaratuvchi deb qaraladi;

- oqibatni ko‘rsatishdan ko‘ra uning sababini o‘rganish lozimligi oydinlashadi;

- sifatni miqdorga aylanishi va o‘z navbatida miqdorni sifatga ta‘siri ilmiy tahlilga tortiladi;

- shaxs munosabatida uning taqdiriga bo‘lgan munosabat turadi;

- shaxs o‘zini bilmasa, o‘zgani bilolmasligini anglab yetadi;

- qonun insonni jazolovchi, jabrlovchi deb emas, uni himoya qiluvchi yetakchi omil sifatida qaraladi;

- kafolatli natija bo‘lmasa (yoki ko‘zga tashlanmasa) uning ta‘sir kuchi bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, tarbiya texnologiyasida gap so‘zsiz tarbiya, ko‘z qarash, imo-ishora, mimik-pantamimik harakatlar, ibrat-namuna, taqlid tarbiyasi, sirli va sehrli so‘zlar hamda xalq maqollari, hikmatlarning alohida o‘rni bor. Masalan:

- tan og‘rig‘i boshqa (shifokor davolaydi), qalb og‘rig‘i boshqa (tarbiyachi davolaydi);

- yomon narsa tez yuqadi. Ezgulikka qaraganda yomonlik yuqumli;

- charchoqni uyqu, hasrat chekkan qalbni mehr dam oldiradi;

- tuyg‘u-ma‘naviy quvvatni oshiradi;

- eng katta tijorat – o‘ksik qalblarni shodmonlashtiradi;

- nom-nomusga ega;

- jahl-ma‘naviy qashshoqlik;

- tarbiyasizlik so‘zga zug‘um qilishdan bshlanadi;

- kimdir ojizligi bilan kuchli, kimdir esa qudrati bilan ojiz;

- o‘zganing baxtsizligidan baxt topishga urinish o‘ta badbaxtlik;

- o‘zganing qayg‘usidan o‘ziga quvonch izlashga intilish ojizlik kabilar.

Demak, tarbiya texnologiyasi shaxsni o‘z-o‘zini tarbiyalay olish darajasiga olib kelishi va bu jarayon tarbiya texnologiyasining kafolatli natijasini belgilashi lozim.

Tarbiya texnologiyasi mazmunida o‘z-o‘zini tarbiyalash – o‘z-o‘zini tahlil etish, o‘zining faoliyatini o‘zi baholash, xayoliy suhbatga muvofiq o‘zining shaxsiy va kasbiy rejalarini belgilash, o‘zining his-tuyg‘ulari, faoliyat-motivlari, bilim, ko‘nikma va



malakalarini taftish etish orqal o'zining istiqboldagi rivojlanish qobiliyati hamda mahoratini bilish, uni boshqa shaxslar bilan qiyoslash va tegishli aniq xulosalar chiqarish tarbiya texnologiyasi ning reflektiv xususiyatini ochib beradi. Bu jarayon pedagogika fanida alohida tadqiqot o'z ob'ekti ko'rinishida o'rganilishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurauf Fitrat. Farzand tarbiyasi// Tarbiya. 2005. №1. B. 27–30.
2. Nurumbekova Ya. Tarbiyachi kasb faoliyatida innovatsion texnologiyalar. Guliston. Ziyo. - 2012.
3. Nurumbekova, Y. (2021). TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO PROFESSIONAL EDUCATIVE ACTIVITY ON THE BASEMENT. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 66-74.